

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA № _____

2022 yil 20 yanvar

1. Loyihaning turi: Xo'jalik shartnomasi
2. Loyihaning yo'nalishi/nomi: Elektr energiyasi ta'minoti to'g'risida
3. Loyihaning muallifi va kiritilgan sana haqida ma'lumot: Shartnoma loyihasi Taxiatosh tumani elektr ta'minoti korxonasi tomonidan ishlab chiqilib Taxiatosh tumani Tibbiyot birlashmasiga oferta sifatida kiritilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 19.01.2022 yili kiritildi.

4. Loyiha bo'yicha taklif va izohlar:

shartnoma loyihasi markaz tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilganida quydagilar aniqlandi:

Taxiatosh tumani hududiy elektr ta'minoti korxonasi va Tibbiyot birlashmasi (ko'p tarmoqli poliklinika O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.03.2008 yilgi Qarori tuman (shahar) tibbiyot birlashmasining tarkibiy tuzilmasiga kirishi ko'rsatilib o'tilgan) o'rtalarida mazkur shartnoma elektr ta'minoti bo'yicha tuzib chiqilgan. Unda bo'lim o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kerakli bo'lgan quvvat va hajmdagi ja'mi 9000 kVt.s 4,050,000.00 so'mni tashkil etuvchi (1kVt.c - 450 so'm) elektr energiyasini yetkazib berishni so'ralgan va ushbu ma'lumotni shartnoma loyihasining 2.1 va 2.2 bandlarida aks ettirgan. Yetkazib beriladigan elektr energiyasining hajmi oylar kesimida (har oy uchun 3000 kVt.c) shartnoma loyihasining 1 ilovasida va elektr energiyasini hisobga olish priborlari haqidagi ma'lumot esa 2 ilovada belgilab qo'yilgan. Shartnoma loyihasi ekspertizadan o'tkazilganida uning barcha bandlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi hamda 29.08.1998 yilgi "Xo'jalik yurutuvchi subyektlar faoliyatining shartnomavaiy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-sonli Qonunining 10-16 modda talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.01.2018 yilgi "ELEKTR ENERGIYASI VA TABIIY GAZDAN FOYDALANISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA"gi №22-sonli Qarori 1 ilovasida tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga to'liq javob berishi aniqlandi;

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.07.2019 yilgi "YOQILG'I-ENERGETIKA RESURSLARINING NARXLARI VA

TARIFLARINI O'ZGARTIRISH TO'G'RISIDA"gi 633-sonli Qarori 1-ilovasida yoqilg'i-energetik resurslarning narxlari va tariflari jadval asosida keltirilib o'tilgan va unga ko'ra elektrenergiya iste'molchilarining I va II guruhlarini (ulangani quvvati 750 kVt.s va undan yuqori) uchun QQS hisobga olingan holda 1 kVt/soat uchun elektr energiya narxi - 450 so'mni tashkil etadi.

Xulosa

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, unga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

Taxiatosh tumani
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti



A.Kdirbaev